

**IQBOL MIRZO IJODI O'RGANISHDA SUN'IY INTILEKTDAN HAMDA
RAQAMLI TEXNANOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

Solijonova Yulduzxon Baxromjon qizi

Qo'qon davlat universiteti 1-kurs magistranti,

Tel.+998942226871 ,e-mail: malumotlioliy@gmail.com,

Hojiyeva Munnavvarxon Akbarovna

Ilmiy rahbari: PHD

Anontatsiya: *Adabiyot o'qitishda sun'iy intellekt asosida yaratilgan raqamli vositalar Ushbu maqolada maktab adabiyot darslarini tashkil etishda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik samaradorlikka ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, sun'iy intellekt vositalarining o'quvchilarning badiiy asarlarni idrok etish, tahlil qilish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni yoritiladi. Tadqiqotda SI tushunchasiga ta'rif berilib, uning asosiy funksiyalari, ya'ni ma'lumotlarni qayta ishlash, matnlarni tahlil qilish, tavsiyalar berish va interaktiv o'qitish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, sun'iy intellektning badiiy asarlarni tahlil qilishdagi imkoniyatlari — obrazlar tizimini aniqlash, syujet va kompozitsiyani tahlil etish, muallif g'oyasini izohlash kabi jihatlari ilmiy asosda baholanadi. Maqolada ChatGPT, Gemini QuillBot, Canva, Claude kabi zamonaviy SI vositalarining adabiyot darslarining turli bosqichlarida, jumladan, yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, ijodiy topshiriqlarni bajarish va baholash jarayonlarida qo'llanilish mexanizmlari ham tahlil etiladi.*

Natijada, sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish o'qitish jarayonini individuallashtirish, o'quvchilarning faolligini oshirish hamda dars samaradorligini sezilarli darajada yuksaltirishga xizmat qilishi ilmiy xulosalar asosida asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: *Sun'iy intellekt (SI), adabiyot darslari, dars samaradorligi, badiiy asar tahlili, interaktiv ta'lim, o'quvchi faolligi, mustaqil fikrlash, ta'limni individuallashtirish, raqamli texnologiyalar, pedagogic innovatsiyalar, o'qitish metodikasi, ChatGPT, Gemini Canva, Claude, QuillBot*

Abstract: *This article examines, from a scientific and theoretical perspective, the impact of using artificial intelligence (AI) technologies in teaching literature classes at school on the effectiveness of the educational process. In particular, the role of AI tools in developing students' skills of perceiving, analyzing, and independently interpreting literary work highlighted. The study provides a definition of artificial intelligence and considers its main functions, including data processing, text analysis, recommendation systems, and interactive learning opportunities. Furthermore, the possibilities of artificial intelligence in analyzing literary works are evaluated on a scientific basis, such as identifying character systems, analyzing plot and composition, and interpreting the author's idea. The article also analyzes the mechanisms of applying modern AI tools such as ChatGPT, Gemini, Canva Claude and*

QuillBot at different stages of literature lessons, including introducing new topics, reinforcing knowledge, completing creative tasks, and assessment processes.

As a result, it substantiated through scientific conclusions that the effective use of artificial intelligence technologies contributes to the individualization of the learning process, increases student engagement, and significantly enhances the overall effectiveness of the lesson.

Keywords: *Artificial Intelligence (AI), literature classes, lesson effectiveness, literary analysis, interactive learning, student engagement, independent thinking, personalized learning, digital technologies, pedagogical innovations, teaching methodology, ChatGPT, Gemini, Canva, Claude, QuillBot.*

So'ngi yillarda texnologiyalar yanada rivojlanib bormoqda shuning bilan birgalikda maktab o'quvchilarning dunyoqarishi va bilim ko'nikmasi ham yuqori darajaga ko'tarilmoqda. Bugungi adabiyot darsliklarida asar o'rganish va tahlil jarayonlarida o'quvchilarda qiyinchiliklar bor, ya'ni ular asarni o'qiyotganlarida har doim ham yetarlicha tassavvurga ega bo'lmaydi va bir jihatni inobatga olishimiz kerakki, ko'pchilik maktab o'quvchilari ham mobil telefondan bemalol foydalana olishida bu esa ularga ijtimoiy tarqmoqlar kengligini ko'rsatib beradi. Bugungi kunda o'quvchilar ham, talabalar ham turli topshiriqlarni bajarish, muammoli vaziyatlarni hal qilish, mashq va masalalarga yechim topish jarayonida sun'iy intellekt (AI), xususan, ChatGPT kabi vositalarga tez-tez murojaat qilmoqda. Bu holatning o'zi ta'lim tizimida yangi yondashuv va imkoniyatlarning shakllanayotganini ko'rsatadi. Biroq bu foydalanishda muhim bir mezonni unutmaslik zarur: sun'iy intellekt o'quvchi yoki talabani mustaqil fikrlashdan chetlatmasligi, balki unga yo'l ko'rsatishi, fikr doirasini kengaytirishi kerak. Ayniqsa, adabiyot fanida bu kabi texnologiyalarni oqilona qo'llash o'quvchilarni asar mazmunini chuqur anglashga, muallif g'oyasini tushunishga, obrazlarni tahlil qilishga yo'naltirishi mumkin. Masalan, sun'iy intellekt yordamida she'r yoki asar tahlilining semantik, stilistik va lisoniy jihatlarini o'rganish mumkin. Bu esa o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi, mustaqil mulohaza yuritishi, tahliliy yondashuvini rivojlantiradi. Shunday ekan, zamonaviy ta'lim jarayonida sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish bu nafaqat zarurat, balki imkoniyatdir. Asosiysi, bu vositalardan qanday foydalanish o'qituvchi va o'quvchi madaniyatiga, yondashuviga bog'liq. Demak, sun'iy intellekt bu o'rganish vositasi, lekin o'qituvchining o'rnini bosuvchi vosita emas. Sun'iy intellekt vositalari nima uchun kerak? Adabiyot fani fikr, tahlil, his-tuyg'u, estetik tafakkurga asoslangan fandir. Asarlarni o'qish va tahlil qilishda o'quvchi o'z dunyoqarashi, tafakkuri orqali obrazlarni anglaydi. Ammo zamonaviy sun'iy intellekt vositalari bu jarayonda:

- tahlil strukturasi shakllantirish,
- asosiy g'oyani ajratib ko'rsatish,
- savollarga ko'p qirrali yondashuv berish,
- tahlil jarayonini muqobil fikrlar bilan boyitish imkonini beradi.

Shuningdek, sun'iy intilekt yordamida badiiy asarga oid videolar yasab dars davomida ko'rsatilsa bu jarayon ham dars samaradorligini bir muncha oshiradi. Undan tashqari, asarni epizodlarga ajratish, har bir muhim sahnani AI yordamida vizuallashtirish, video ko'rsatishdan oldin matnni o'qitish, videodan so'ng muhokama savollari berish. Asarning eng qiziqarli sahnasini qisqa AI video ko'rinishdi berish, "davomini bilishni istaysizmi?" usulidan foydalanish, o'quvchilarga o'z lari sahna yaratish topshirig'ini berish. Natija: Motivatsiya va qiziqish ortadi. Ramziy obrazni alohida vizual tasvirlash. Videoni to'xtatib, ramz ma'nosini birgalikda tahlil qilish. "Matnda bu ramz nimani anglatadi?" savolini qo'yish.

Natija: Tahliliy fikrlash shakllanadi. [1;67-68]

Kutilayotgan natijalar: O'quvchilarning badiiy asarni tushunish darajasi oshadi, tarixiy muhit va obrazlarni tasavvur qilish ko'nikmasi rivojlanadi, ramz va timsollarni anglashda sezilarli ijobiy o'zgarish kuzatiladi, matnni yuzaki emas, tahlili yo'q ish malakasi shakllandi, mustaqil fikrlashda rejasi oshadi, qiyosiy tahlil qilish ko'nikmasi shakllantiradi o'quvchilar matn va video talqinini solishtira boshlaydi. Tanqidiy yondashuv elementlari paydo bo'ladi. Gemini AI sun'iy intilekti -google kompaniyasi Gemini neyron tarmog'ini ishga tushirdi. Kompaniya uni sun'iy intellektning eng kuchli va samarali modeli deb atamoqda. Gemini uchta komponentni o'z ichiga oladi: Ultra (eng katta va eng funksional), Pro (keng ko'lamli vazifalar uchun) va Nano (aniq vazifalar va mobil qurilmalar uchun). Ularning barchasi rasmlar, audio va videolarni qo'llab-quvvatlaydi. Ultra eng kuchli tarmoq bo'lib, 57 ta fan (matematika, fizika, tarix, huquq, tibbiyot, etika va boshqalar) bo'yicha ma'lumotlarni o'z ichiga oladi va mustaqil ravishda faktlarni tekshirish va muammolarni hal qilish imkoniyatiga ega. [2;56-57] «Gemini - bu turli Google jamoalari o'rtasidagi hamkorlik mahsulidir. Bu model noldan yaratilgan. U matn, kod, audio, tasvir va videoni o'z ichiga olgan har xil turdagi ma'lumotlarni umumlashtirishi va oson tushunishi, qayta ishlashi va birlashtirishi mumkin», dedi Sundar Pichai, Alphabet (Google) kompaniyasi bosh direktori. [3;98-99] Bu sun'iy intilekdan adabiyot darslarida turli xil ko'rgazmali qurollar tayyorlashda foydalanishimiz mumkin bu o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. Shuningdek, maqol va matallarni rasm shaklida ko'rnishida darsga taqdim etilsa dars jarayoni o'zgacha tus oladi. Canva - bu grafik dizayn platformasi bo'lib, odamlar undan SMM, posterlar, taqdimotlar, hujjatlar va boshqa vizual ishlarni yaratishda foydalanishadi. Saytda tayyor dizayn qoliplari mavjud. Platformani ishlatish bepul bo'lib, qo'shimcha imkoniyatlarni taqdim qiluvchi pullik obunalar Canva Pro and Canva for Enterprise ham mavjud. [4;56-57] Bu platforma o'qituvchilarga yangi dizayndagi, qiziqarli taqdimotlar yasashda keng imkoniyatlar yaratadi. 2 Undan tashqari, unda turli xil o'yinlar tayyorlashda ham foydalanilsa maqsadga muvofiq. Xususan, serqirra ijodkorlardan biri bo'lgan Iqbol Mirzoning "Daraxtlar" she'ri 7-sinf adabiyot darsliklarida berilgan. Ushbu she'rni tahlil qilishda biz sun'iy intilekdan qanday va qay o'rinlarda foydalanishimiz mumkin?

Bir daraxtni ko'rdim – mag'rur, barkamol,

Istagan faslida gullaydiganday.

Pisandiga yaqin kelmas qor, shamol:

Durkun bargi mangu so'lmaydiganday.
Shul daraxtning oldida xor, g'aribman,
Yo'l yarmiga etar-etmas horibman,
Havodan kuz hidin olib turibman,
Bahor menga qaytib kelmaydiganday. [5;67-68]

Ushbu she'rni tahlil qilishda biz daraxt ramziy obrazini yaratishda gemini yoki chatgpt dan foydalansak bo'ladi va bu o'quvchilarni tasavvur qilishiga yordam beradi. Undan tashqari, she'rda aytilgan shamol va qor obrazlarni ham yaratsak bo'ladi. Faqat biz e'tibor qilishimiz kerak bo'lgan jihati shuki, sun'iy intilektda biror narsa tayyorlamoqchi bo'lsak, unga to'g'ri ma'lumot kiritishimiz kerak. Shuningdek, Canva orqali o'yin yaratishimiz mumkin. Masalan, "she'rni davom ettiring" o'yini. Bunda: She'rning boshki misralari yoziladi va o'quvchilar mazmuniga qarab keyingi qatordagi misrani topishlari kerak bo'ladi. [6;85-86]

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar hayotimizda ba'zi jihatlarda muhim ro'l o'ynaydi. Lekin biz ulardan to'g'ri foydalanish o'zimizning qo'limizda. She'r tahlil qilishda sun'iy intilektda to'liq holda tayanish ham bo'lmaydi. Bu o'quvchilarni kitoblardan ma'lumot izlashga bo'lgan qiziqishini pasaytiradi. SHuning uchun undan tahlil jarayonida emas balki, mavzuni o'rganishga qaratilgan qiziqarli o'yinlar tayyorlashda foydalanilsa maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axrorjon, Y., Alijon, M., & Iqlima, A. (2022). Faol texnologiyalarni o'smirlar psixologiyasiga ta'siri. Ta'lim fidoyilari, 13(6), 263-266.
2. Axrorjon, Y., Nozima, Z., & Muhtaram, J. (2022). KITOBNING INSON MA'NAVIY VA AQLIY KAMOLOTIDAGI O'RNI.
3. Rakhimov, M., Yuldashev, A., & Solidjonov, D. (2021). The role of artificial intelligence in the management of e-learning platforms and monitoring knowledge of students. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(9), 308-314.
4. Yoldashev, A. E. O., Nishonqulov, S. F. O., & Yoldasheva, M. R. Q. (2021). TA'LIMDAGI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI. Scientific progress, 2(3), 806813.
5. Yo'ldashev, A., & Nazarova, G. (2022). Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda dastlabki pedagogik jarayonlar. Science and Education, 3(6), 618-623.
6. Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov "Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik" Toshkent – 2022